



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI FAOLIYATIDAGI
INNOVATSION YONDASHUVLARNI ILMIY NAZARIY TAHLILI**

Andijon davlat pedagogika instituti
“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrası
katta o’qituvchisi Raximova Mohinora

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226930>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti otarbiyalanuvchilari ota-onalari bilan olib boriladigan hamkorlik ishlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: hamkorlik, ota-ona, maktabgacha ta’lim tashkiloti, tarbiyalanuvchi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarning ishtiroki tarbiya va bolalar uchun ham juda yaxshi natija olib keladi. Bola tarbiyasida oilaning o’rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta’sir ko’rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo’lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o’yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o’ynashi uchun o’yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko’kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlar tarbiyachining yillik ish rejasida o’z aksini topgan bo’lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig’ilishlarida muhokama qilish va ma’qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e’lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo’lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko’rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish [Ошибка! Источник ссылки не найден.] kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta’limga jalb etish maqsadida turli xil to’garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig’ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Uydagi ta’lim muhitini mustahkamlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari oilada, uyda yoki jamoatchilikda foydalanish uchun chora-tadbirlar hamda materiallarni taqdim etish bilan ular o’z farzandlarini o’qitib-o’rgatishlari [Ошибка! Источник ссылки не найден.] jarayonini yaxshilashlariga yordam bera oladi. Bu tadbirlar o’z ichiga oila a’zolari bolalar bilan birga o’tkazishlari mumkin bo’lgan nutq va savodxonlikni rivojlantirish bo’yicha mashg’ulotlarni oladi. Ular shu jumladan, birgalikda o’qish uchun kitoblar, interfaol jurnallar, kulinariya tadbirlari yoki tabiat kuzatishlari yoxud parkda hamda bolalar maydonchalarida yasashlari mumkin bo’lgan har xil narsalardan iborat bo’lishi mumkin. Agarda bolalar guruhda biron-bir aniq mavzuni o’rganayotgan bo’lsalar, ular oila a’zolaridan bu mavzuda intervyu olishlari, birgalikda rasm chizishlari, hikoya tuzishlari va uni birgalikda yozishlari ham mumkin.

Oilaning dastlabki pedagog sifatidagi rolini mustahkamlash Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari ota-onalarga ularning o’z farzandlari uchun dastlabki ilk pedagoglar sifatidagi rollarini mustahkamlash maqsadida resurslarni topishga yordam berishlari va tadbirlarda ishtirok etishlariga ko’maklashadi [Ошибка! Источник ссылки не найден.]. Oilaviy yig’inlar, huquq va imkoniyatlarni kengaytirish dasturlari, noformal uchrashuvlar va oilani qo’llab-quvvatlash guruhlari – mana shular biz oilalarga axborotlarni bera olishimiz va ular bilan bog’lana olishimiz mumkin bo’lgan usullardan ayrimlaridir. Ular shuningdek, oilalarga o’zaro bir-birlari bilan muloqot qilishlariga ham ko’maklashadi. Bu chora-tadbirlarning maqsadi oilani to’g’rilash emas, balki ularni qo’llab-quvvatlash va ularga yordam ko’rsatishdir. MTT oilaga yordam ko’rsatganida va oila ular o’z farzandlarini tarbiyalashda murojaat qilishlari mumkin bo’lgan ko’plab resurslar mavjudligini tushunganlarida oila o’z farzandlarining uyda va maktabgacha



ta'lim tashkilotida tarbiyalanishning butun davri mobaynida ham ta'lim olishlarini ko'proq darajadagi ehtimollik bilan davom ettiradilar.

Aksar pedagoglarning o'zlariga o'xshash tajribaga ega bo'lgan va pedagoglardan xuddi shunday narsani kutadigan oila bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatishi osonlashadi. Bu ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida muntazam faol ishtirok etadigan oilalar, masalan, bayram tadbirlarida, guruhlarda ko'ngilli ravishda qatnashadigan, materiallarni taqdim etish va yig'ilish va konferensiyalarda ishtirok etadigan ota-onalar bo'lib, pedagoglar ulardan nimani kutayotganliklarini bilishadi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Fikrlari biznikidan farq qiladigan oilalar yoki pedagoglar kutganidek har xil tadbirlarda ishtirok etmaydigan oila bilan hamkorlik o'rnatish juda qiyin bo'lishi mumkin. Biz hatto bu oilalar o'z farzandlari va ularning ta'lim olishlari xususida kamroq g'amxo'rlik qilishlariga yoki o'z farzandlarini tarbiyalashda nisbatan kam bilimga ega ekanligiga ishonishimiz mumkin [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Oila bilan ishlashning innovatsion usullari, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish usullarini ko'rib chiqamiz [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]:

– **Loyiha faoliyati:** ota-onalarni bolalarni rivojlantirish va ularning ta'lim va tarbiya sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb qilish [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

– **Mahorat darslar:** o'qituvchilar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashadigan va bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning turli jihatlarini bo'yicha amaliy tavsiyalar beradigan ota-onalar uchun mahorat darslarini tashkil etish.

– **Interaktiv shakldagi ota-onalar yig'ilishlari:** o'quv jarayoni va oila bilan hamkorlik bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun o'yin texnikasi, munozaralar, davra suhbatlari va boshqalar kabi interaktiv usul va texnologiyalardan foydalanish.

– **Oilaviy bayram va tadbirlarni tashkil etish:** oila va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, bolalarning rivojlanishini rag'batlantiradigan qo'shma bayram va tadbirlarni tashkil etish.

– **Masofaviy aloqa shakllarini yaratish:** o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida ma'lumot va tajriba almashish, shuningdek maslahat va seminarlar o'tkazish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Hamkorlik boshqa tomonni hurmat qilishni, ularning ehtiyojlariga javob berishni va nima ishlayotganini va nima ishlamayotganligiga o'z munosabatini bildirishni talab qiladi. Bunday munosabatlarni boshlash uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalaydigan bolalarning oilasi to'g'risida ma'lumotlarni bilishlari kerak. Oila farzandlarning birinchi va eng muhim tarbiyachisidir.

Maktabgacha ta'lim boshlanganda oilalar bolalarga aksar ko'nikmalarni shakllantirgan: ovqatlanishdan va ichishdan tortib to o'zlariga va boshqalarga qarashgacha o'rgatgan bo'ladi. Ularning aksariyati bolalarga o'z ehtiyojlarini qanday qondirish kerakligini, ularning yoshiga va madaniyatiga qarab o'zlarini qanday tutishni, shuningdek, ona tilida og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot qilishni o'rganishda yordam berishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'RQning 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni. 16.12.2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI" 22.12.2020 yil.
3. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" T-2019 132-133 b
4. Asqarova.D.Q. "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" T-2020 13-17b
5. Qurbonova. Z.I. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education." nomli Ilmiy maqola -



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАРАҚҚИЙОТИ, МУАММО YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11
47,48,49 b. Испания 2021

6. Ш.Мирзаева З.И.Курбанова “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у
детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021.1206-
1212b.